



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 30-sentabr, seshanba,
111 (24.137)-son

Zarafshon

Yangi
O'zbekistonda
eng muhim
soha — ta'lim,
eng hurmatli
insonlar —
o'qituvchi va
murabbiylardir!

**Shavkat
MIRZIYOYEV.**

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident farmoniga ko'ra Yagona portaldagi shaxsga doir ma'lumotlar qog'oz shakliga tenglashtiriladi

Shu yil 8-sentabrda "Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish hamda sohada byurokratik tartibotlarni tubdan qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra, 2025-yil 1-noyabrda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (my.gov.uz) jismoniy shaxslarning belgilangan shaxsga doir ma'lumotlari ularning shaxsiy kabinet orqali real vaqt rejimida taqdim etiladi. Bunda jismoniy shaxsning ushbu portaldagi shaxsga doir ma'lumotlari ularning qog'oz shakliga tenglashtiriladi. Shuningdek, bu ma'lumotlar Yagona portalning mobil ilovasidan foydalanish holda ko'rsatilgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan mazkur ma'lumotlarning qog'oz shaklini talab qilish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-noyabrda davlat xizmatlari markazlariga kelib murojaat qilinganda pensionerlar, homiladorlar va 3 yoshga to'lgan bolasi bilan kelgan ayollarga davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanish bo'yicha imtiyoz beriladi. Jismoniy shaxslarni yagona identifikatsiya tizimidan (OneID) ro'yaxdan o'tkazishda muqobil tarzda shaxsni biometrik identifikatsiya qilish (FaceID) tartibi yo'lga qo'yiladi. Davlat xizmatlari markazlariga Yagona portal orqali joriy etilgan barcha davlat xizmatlari bo'yicha aholi va tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish huquqi beriladi.

Husan TUROBOV,
Samarqand shahar adliya bo'limi
davlat xizmatlar markazi yetakchi
mutaxassisi.

Butunjahon turizm kuni munosabati bilan viloyat turizmni rivojlantirish jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda viloyatda turizmni rivojlantirish, yangi yo'nalishlar tashkil etish, mahalliy hamda xorijiy sayyohlar sonini ko'paytirish masalalari muhokama qilindi.

Dastlab viloyat turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jo'rabek Suyunov joriy yilning o'tgan davrida sohada amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Ta'kidlanishicha, yilning 8 oyida viloyatga 2,2 million xorijiy, 4,3 mil-

Samarqandda turizmni yanada rivojlantirish belgilandi

lion mahalliy sayyoh tashrif buyurgan va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 140 foizni tashkil etgan. Turizm xizmatlari eksporti esa 441,1 million dollarga yetkazilgan.

O'tgan davrda viloyatda 194 ta joylashtirish vositasi, jumladan, 13 ta mehmonxona, 37 ta xostel, 144 ta oilaviy mehmon uyi faoliyati yo'lga qo'yilib, joy-



lashtirish vositalari soni 821 taga, o'rinlar soni esa 22 ming 680 taga yetgan. Shuningdek, joriy yilda 63 ta turkompaniyalar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning umumi soni 451 ta bo'ldi.

Yig'ilishda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev turizm infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va bu boradagi muammolarga tezkor yechim topish, shuningdek, yangi loyihalar orqali hududning sayyohlik salohiyatini to'liq

ishga solish bo'yicha fikrlarini bildirib, mutaxassislarining takliflarini so'radi.

Tadbir davomida viloyatda turizmni rivojlantirish, bu borada xalqaro tajribalardan foydalanish, Samarqand ramzini yaratish va sohaga startap loyihalarni joriy qilish yuzasidan taqdimotlar qilindi.

Yig'ilish yakunida Butunjahon turizm kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhiga viloyat hokimligining tashakkurnomasi topshirildi.

F.R.O'ZIBOYEV.



INDALLOSINI AYTGANDA...

Qozoqboy YO'LDOSHEV,
pedagogika fanlari doktori, professor.

— Chinakam bilim odamning orzularini to'xtovsiz ravishda yuksaltiradi. Orzular moddiy chegaralardan balandroq bo'ladi. Kattaroq orzular nomus degan, sha'n degan, e'tirof degan tuyg'ularni yuzaga chiqaradi.

Nyu-Yorkdagi strategik muloqot

Yangi O'zbekiston hayotida yangi sahifa ochdi

Joriy yil 23-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSh Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashdi.

Donald Tramp ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlashga tayyor ekanini bildirdi. Shu bilan birga, Tramp o'zining 2018-yildagi va shu yil sentabr oyidagi telefon orqali muloqotni eslatib o'tdi. Bu uchrashuv avvalidagi diplomatik tayyorgarlik va munosabatlar borasidagi ishonch belgisi edi.

Tahlilchilar tomonidan uchrashuv Markaziy Osiyo geosiyosiy sahnasida muhim voqea sifatida qayd etildi. Negaki Donald Tramp Nyu-Yorkda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan faqat O'zbekiston rahbari bilan ikki tomonlama uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda nimalar haqida gaplashildi? O'zbekiston - AQSh munosabatlarida yangi sahifa ochgan muloqotda iqtisodiy, siyosiy va strategik hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama etildi.

Xabarlardan anglash mumkinki, prezidentlar asosan quyidagi masalalarni muhokama qildi: Iqtisodiy hamkorlik — O'zbekistonda Amerika kompaniyalari faoliyat yuritishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, zamonaviy texnologiyalar kelishi haqida gaplashildi.

Investitsiya — Amerika banklari va investorlari O'zbekistondagi yirik loyihalarda qatnashishi mumkin. Bu mamlakat iqtisodiy uchun katta imkoniyat bo'ladi.

Energetika va sanoat sohasi — Amerika kompaniyalari bilan neft, gaz va qazilma boyliklarini qo'shma tarzda qayta ishlash haqida muzokaralar olib borildi.

Aviatsiya va logistika — Samolyotlar va aeroportlar sohasidagi hamkorlik ham muhokama qilindi.

Bu uchrashuv — O'zbekistonning tashqi siyosatda faol va ochiq ekanligini ko'rsatdi. Sh.Mirziyoyev Amerika prezidenti bilan yuzma-yuz uchrashib, dunyoga quyidagilarni bildirdi:

— O'zbekiston xalqaro maydonda o'z o'rniga ega;

— mamlakat tashqi sarmoya va texnologiyalarga ochiq.

Bu uchrashuv nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim. Xususan,



AQSh — dunyodagi eng yirik iqtisodiyot. Uning O'zbekistonga qiziqishi mamlakatimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tahlilchilarga ko'ra, belgilangan loyiha va kelishuvlar ikki davlatda o'n minglab yangi ish o'rinlari yaratadi. Tashqi investitsiyalar orqali iqtisodiyot o'sishi imkoniyatlari oshadi. Yana bir muhim tomoni, iqtisodiy sohada yangi texnologiyalar kelishi mumkin.

Muloqot davomida janob Tramp prezidentimizning Amerikaning 50 dan ortiq yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan bir kun avval bo'lib o'tgan uchrashuvi natijalarini yuqori baholagani ham bunga yaqqol isbot bo'ladi.

Darvoqe, uchrashuv yakunlarida Prezident Mirziyoyev Donald Trampni rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga kelishga taklif etdi. Tramp esa bu taklifni ijobiy baholab, "Men bu haqda o'ylab ko'rganman" deb javob berdi. Bu — O'zbekiston tashqi siyosatida Sharq va G'arb o'rtasidagi muvozanatni saqlash strategiyasiga mos qadam hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev va Donald Trampning uchrashuvi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar uchun muhim qadam. Bu nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy taraqqiyot, yangi imkoniyatlar va xalqaro nufuz uchun ham foydali uchrashuv bo'ldi.

O'zbekiston bugun jahon davlatlari bilan ochiq va do'stona munosabat o'rnatishga harakat qilmoqda. Amerika bilan bunday muloqotlar esa bu maqsadga erishishda katta ahamiyatga ega.

Diyor HUSANOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

Шаҳар йўл инфратузилмасида ўзгаришлар бўлади

Таклифлар орасида янги йўл ўтказгич, ақлли светофор ҳамда халқаро йўлни шаҳардан узокроққа кўчириш каби қатор янгиликлар бор.

Маълумотларга кўра, Самарқанд шаҳар марказий кўчалари жадаллиги суткасига 14 минг транспорт воситаси ҳаракатланишига мослаштирилган. Бугунги кунда бу кўрсаткич 55 мингтани ташкил қилмоқда. Яъни, шаҳар кўчаларида белгиланганидан қарийб тўрт баравар кўп транспорт воситалари ҳаракатланипти. Оқибатда 20 дан ортиқ чорраҳада тирбандлик кузатиляпти. Бу эса табиийки, ҳаракат иштирокчиларига ноқулайлик туғдирмоқда. Шу боис Самарқанд шаҳри кўчаларида тирбандликларнинг олдини олиш бўйича ўнга яқин йўналишда таклифлар ишлаб чиқилган.



Кўчаларда ҳаракат бир томонлама бўлади

Ишлаб чиқилган таклифлардан бири жамоат транспорти тизими самардорлигини оширишга қаратилган. Ушбу таклифга кўра, шаҳарга кириш жойларида 3 та автостанция ташкил қилинади. Бундан ташқари, 191 та оралик бекат қуриш, 123 та мавжуд бекатда майдонча (карман) ташкил қилиш керак. Ушбу йўналишдаги таклифлардан яна бири 100 та электробус харид қилишидир.

Абдурахмон Жомий, Маҳмуд Кошгарий, Шоҳрух Мирзо, Хусайн Бойқаро,

Юсуф Ҳамадоний, Чўқур йўл, Орзу Маҳмудов кўчаларида синов тарихида 2025 йил 1 октябрдан бир томонлама ҳаракатни ташкил қилиш кўзда тутилган. Жамоат транспорти жозибдорлигини ошириш мақсадида Рудакий, Беруний, Абдурахмон Жомий, Маҳмуд Кошгарий ва Орзу Маҳмудов кўчаларида автобуслар учун алоҳида йўлак ташкил этиш режалаштирилган.

ЎТКАЗГИЧЛАР КЎПАЯДИ

Тирбандликларнинг олдини олиш борасида ерости ва ерусти инфратузил-

масини йўлга қўйиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Бу борада 4 та йўл ўтказгич ва 16 та йўлести пидедалар ўтиш жойи қуриш таклифи қилиняпти.

Йўл ўтказгичлардан бири Спитамен шоҳ — Мирзо Улуғбек — Беруний кўчалари чорраҳасида, иккинчиси, Даҳбед ва Рудакий кўчалари чорраҳасида, учинчиси эса Ибн Сино ва Даҳбед кўчалари чорраҳасида қурилади.

ТРАНЗИТ ТРАНСПОРТЛАР КИРИТИЛМАЙДИ

Таклифлар орасида автотураргоҳ ва йўл усти парковчаларини ташкил этиш баробарида шаҳар айланма йўллари тақомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилган. Ушбу йўналишда 17 километр йўлни кенгайтириш, 5,5 километр янги йўл қуриш кўзда тутилмоқда.

Қайд этилишича, бу орқали катта ўзбек тракти Самарқанд шаҳридан бирмунча узоклашади. Паровардида транзит транспортлар келтираётган юклама йўқолиб, маҳаллий ҳаракат иштирокчиларига энгиллик яратилади.

Шунингдек, шаҳар четидида йўлларда учта йўл ўтказгич ва 8 та ерости пидедалар ўтиш жойи қуриш, 2 та ерости қайрилиб олиш жойларини ташкил этиш таклифи берилган. Бу ҳам йўлларда ҳаракат жадаллигини оширишга хизмат қилиши билдирилмоқда.

СВЕТОФОРЛАР АҚЛЛИ БЎЛАДИ

Светофорлар бошқарувининг ягона тизimini жорий этиш ҳам кўзда тутилляпти. Бунда 180 та ақлли светофор ташкил этилади, 67 та светофор ягона бошқарув тизимига ўтказилиб, 9 та марказий кўчада яшил йўлаклар ташкил этилади.

Тўхташ ва тўхтаб туриш қоидабазарликларини аниқловчи 60 та, мактаблар олдидаги пидедалар ўтиш жойларига 55 та фото ва видео қайд этиш мосламаси ўрнатилади.

Албатта, бу якуний тўхташ эмас. Яхши янгиликлар ҳали олдинда.

Ё.МАРҚАЕВ.



O'qituvchi va murabbiylar kuni
munosabati bilan berilayotgan
maqolalar bilan gazetamizning
2-, 3-, 4-sahifalarida tanishing!



Xizmat emas, ko'ngil ishi yoki qismati ustozlik bo'lgan huquqbon

Yer yuzidagi barcha xalqlar uchun birdek qadri va bebaho ne'mat bor. Bu tinchlik-osoyishtalidir. Qayerdagi odamlar ushbu ne'matdan mosuvo bo'lsa, ularning turmushida halovat bo'lmaydi. Yaratganga beadad shukronalar bo'lsinki, yurtimiz tinch, osoyishta. Buning zamirida ichki ishlar organlari xodimlarining zahmatli xizmati yetibdi.

Ana shunday zahmatli xizmatda fidoyilik ko'rsatish barobarida, o'nlab shogirdlarga ustozlik qilganlardan biri iste'fodagi mayor Ahmadjon Zubaydullayevdir.

U O'zbekiston ichki ishlar organlari tizimidagi faoliyatini profilaktika inspektorligidan boshlagan. Keyinroq navbatchilik qismi katta inspektori, jinoyat qidiruv bo'limi boshlig'i, Kattaqo'rg'on shahar ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari lavozimlarida xizmat qildi. Burchga sadoqati, kasb mahorati, haloligi va qat'iyatligi tufayli hamkasblari orasida hurmatga sazovor bo'ldi.

- Biz ishlagan davrlarda hozirgidek sharoitlar qayer-

da edi: transport yetishmasdi, aloqa vositalaridan faqat ratsiya berilardi, u ham ma'lum masofadan keyin o'chib qolardi, - deydi Ahmadjon aka. - Ammo talab qat'iy - jinoyatchilikka qarshi keskin kurashish, huquq-tartibotni ta'minlash kerak. 1995-1997-yillarda bosqinchilik, o'g'riilik, talonchilik jinoyatlari soni ortib ketdi. Jinoyatlarni "issiq izida" fosh etish uchun kezi kelganda sutkalab uyga borolmasdik.

... 1997-yilda Kattaqo'rg'on tumanida mudhish jinoyat ro'y berdi. Xonadon sobihi o'ldirib ketildi. Qolgan oila a'zolari ham og'ir ahvolda shifoxonaga



yo'tqizildi. Afsuski, aynilining ham joni uzildi. Ahmadjon aka tergov-tezkor guruhining boshqa a'zolari bilan birga ikki kun ichida 4 nafar jinoyatchini qo'lga oldi.

- O'sha paytda hozirgidek kuzatuv kamerallari yo'q edi, - deya xotirlaydi A.Zubaydullayev. - Jinoyatni ochishda qo'shnilarining ko'rsatmalari, bir qarashda arzimaddek tuyulgan mayda detallarga e'tibor qaratganimiz, asosiy, xodimlarning sinchkovligi qo'l keldi.

Tajribali xodim hamkasblariga topshiriq va tavsiya berish

barobarida ana shunday amaliy ibratini bilan ham ustozlik qildi. Darvoqe, Ahmadjon aka pensiyaga chiqqanidan keyin mahalla faoli sifatida yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishlarida ishtirok etib kelmoqda. "Uch avlod uchrashuvlari"da qatnashishni kanda qilmaydi. Uning yuragiga muhrlangan xizmat faoliyati haqidagi xotiralari, hayotiy tajribalari, maslahatlari va yo'l-yo'riqlari ko'plab yosh xodimlar uchun go'yoki amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Qahramonimizning turmush o'rtog'i Gulchaman opa malakali bolalar shifokori. Ikki o'g'il ham otasining izidan borishdi. Jahongir Toshkent shahar IBBda xizmat qiladi, mayor. Ulug'bek Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi, kapitan. Qizi Iroda tarjimon. Umuman, Kattaqo'rg'on shahridagi Chinobod mahalla ahli bu oilani hurmat bilan tilga oladi.

Dilso'z HOSHIMOVA.



Tadbirkor qurgan maktabda qanday sharoit yaratilgan?

Yangi o'quv yili arafasida Samarqand shahridagi 52-umumta'lim maktabining 540 o'rinli qo'shimcha o'quv binosi foydalanishga topshirilgan edi. E'tiborlisi, bino shu maktabning sobiq o'quvchisi, ayni paytda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi Ilhom Rustamov tomonidan 15 milliard so'm mablag' sarflanib, bunyod etilgan.



Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan ushbu muassasaga tashkil etilgan press-turda maktab direktori Feruza Najmiddinova ta'lim dargohining barpo etilishi va yaratilgan sharoitlar haqida gapirib berdi.

- Maktabimizning 960 o'rinli eski binosi 1965-yilda qurilgan bo'lib, ta'mirlab holatga kelib qolgandi, - deydi F.Najmiddinova. - Shu bilan birga, o'quvchilar soni ko'paygani uchun xonalar yetishmasdi, maktabda sport maydonchasi yo'q edi. Bir kuni shu maktabning sobiq o'quvchilaridan biri, saxovatpeha tadbirkor Ilhom Rustamov "Bu maktab men uchun oddiy o'quv maskani emas, balki katta hayotga tayyorlagan muqaddas dargoh. Erishgan muvaffaqiyatlarimda aynan shu maktabning hissasi katta. Shuning uchun eski maktab binosini ta'mirlab, yangi o'quv binosi qurib bermoqchiman" deb taklif bildirdi. Rosti, bu tashabbusdan boshimiz osmonga yetdi va jamoamiz, mahalla ahli bilan bu taklifni qo'llab-quvvatladik.

Qisqa fursatda 540 o'rinli zamonaviy ta'lim maskani barpo etildi. To'rt qavatli binoda o'quv xonalari, kasb-hunarga o'rgatish markazi, axborot texnologiyalari, chet tillarini chuqur o'qitish xonalari, kutubxona va oshxona tashkil etildi. Shuningdek, tadbirkor maktabning

960 o'rinli eski binosini ham mukammal ta'mirlab, uchta sport maydonchasi qurib berdi.

Tadbirkor Ilhom Rustamov bundan avval ham Samarqand shahri, Bulung'ur va Ishtixon tumanlarida o'z hisobidan maktablar qurib bergan. Ana shu xizmatlari va yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi uchun u o'tgan yil "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Press-tur davomida jurnalistlarga viloyatdagi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Muzaffar Hamdamovning ta'kidlashicha, keyingi ikki yilda yuzdan ziyod ta'lim tashkilotida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Shu jumladan, 10 ga yaqin muassasani barpo etish va rekonstruksiya qilishda tadbirkorlar bevosita homiylik qilgan. Joriy yilgi "Tashabbusli budjet" dasturining 1-mavsum natijalar asosida viloyatdagi 51 ta ta'lim obyektida qurilish, ta'mirlash va moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun 74 milliard so'mlik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

*Haq yo'linda kim sanga bir
harf o'qutmish ranj ila,*

*Aylamak bo'lmas ado oning
haqin yuz ganj ila.*

Alisher NAVOIY.



CHEMPIONLARni tarbiyalagan murabbiylar

Ishtixon tuman sport maktabidan mamlakatimiz dovrug'ini dunyoga tanitib kelayotgan sportchilar yetishib chiqyapti. Jumladan, O'zbekiston, Osiyo va jahon chempionlari — Nigina O'ktamova, Gulsevar G'aniyeva, Sanobar Bozorboyeva, Maftuna Musurmonova, Baxtiyor Yaxshiboyev, Azamat Obloqulov kabi nomdor sportchilar jahon arenalarida yurtimiz sharafigini munosib himoya qilib kelmoqda.

Albatta, sportda murabbiylarning, soha mas'ullari hamda mutasaddilarning bevosita ishtirokisiz yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi. Bu borada tumanimizda shunga yarasha imkoniyat, sportga e'tibor, tajriba va salohiyatli maktab mavjud. Asosiy, sohada o'z ishiga sodiq va fidoyi insonlar mehnat qilmoqda.

Misol uchun, tuman sport maktabi boks sport turiga ixtisoslashgan bo'lib, yoshlarimiz erishayotgan yutuqlarda boks murabbiylari Akram Uzoqov, Xurshid Tursunov hamda Azim Xudoyqulovning xizmatlari beqiyos. Xususan, faxriy bokschi va sport ustasi Akram Uzoqov tumanda ilk bor boks to'garagini tashkil etgan va 35 yildan buyon shogird tayyorlab kelmoqda.



U faoliyati davomida o'nlab sport ustalari, mamlakatimiz, Osiyo va jahon chempionlari, xalqaro turnirlar g'oliblarini tayyorlagan. Bugungi kunda shogirdlari jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotganini ko'rib faxrlanamiz. Bunday yutuqlar, avvalo, mamlakatimizda sport sohasiga qaratilayotgan e'tibor va yosh avlodni qo'llab-quvvatlash siyosati samarasidir.

Bugun o'z ustida muntazam ishlagan, milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo'lgan o'qituvchilar ming dollardan yuqori maosh o'lyapti. Masalan, Toyloq tumani 15-IDUMning ingliz tili fani o'qituvchisi Manzura Mirzaqulova yangi o'quv yilidan qariyb 20 million so'm ish haqi o'lyapti. Albatta, u bu natijaga osongina erishgani yo'q. Tinimsiz izlanishlar, o'qish, o'rganishlar ortidan hamma havas qiladigan yutuqlarni qo'lga kiritdi.

O'qituvchi 20 million so'm maosh oladi (mi?)

- Toyloq tumanidagi 21-o'rta maktabda tahsil olganman, - deydi M.Mirzaqulova. - 1997-yil Samarqand davlat chet tillar institutiga o'qishga kirdim. Talabaligimda bir muddat o'zim o'qigan maktabda ishladim. 2004-yilda Baxshitepa qishlog'iga kelib bo'lib keldim va 2006-yildan ushbu maktabda faoliyatimni boshladim. 26 yildan beri maktabda o'qituvchilarga ingliz tilidan dars beraman.

Manzura Mirzaqulova qishloq sharoitida ham ro'zg'or, ham maktab ishidan ortib, malaka toifasini oshirishga harakat qildi. 2018-yilda u oliy toifani qo'lga kiritdi. O'qituvchi oliy toifani saqlab qolish uchun joriy yilning bahorida pedagoglar malaka toifasi uchun bo'lib o'tgan attestatsiya imtihonida qatnashib, 86 ballni qo'lga kiritdi. Yangi tartibga ko'ra, test sinovida 86 va undan yuqori ball olgan pedagoglarga qo'shimcha 70 foiz ustama beriladi.

Shuningdek, M.Mirzaqulova o'tgan yili ingliz tilini bilish yo'yicha xalqaro C1 sertifikatiga ham ega bo'ldi. Xullas, bu yil u xalqaro sertifikat uchun ustama, attestatsiyadan 70 foiz ustama hamda maktab tomonidan 25 foiz ustama puli oladigan bo'ldi. Bugun o'qituvchi mehnatlari zoe ketmaganidan mamnun.

- Bolalarning hammasi ham fanni birdan o'zlashtirib ketavermaydi, - deydi u. - Kimdir tushuntirgan darsimni tez o'zlashtiradi, boshqasi sekin. Ayrimlari bilan alohida shug'ullanishimga to'g'ri keladi. Men ko'proq o'quvchilarni rag'batlantirish orqali mavzuni yetkazib berishga harakat qilaman. Joriy yilgi bitiruvchilardan bir nafar o'quvchim ingliz tilini bilish bo'yicha C1, uch nafar o'quvchim B2 sertifikatini oldi. Ulardan bir nafari Janubiy Koreyaga o'qishga kirdi.

Qishloq o'qituvchisining uyida ham bajarishi kerak bo'lgan bir talay yumushlari bo'ladi. M.Mirzaqulova darsdan keyin katta hovlisida ekin



ekadi, tandirda non yopadi, ertalab sigir sog'adi.

- O'qituvchi astoydil harakat qilsa, qishloqda ham o'z ustida ishlay oladi, - deydi u. - Men kechqurun uch nafar farzandim bilan dars tayyorlayman. Katta qizim bu yil Samarqand davlat chet tillar institutiga grant asosida o'qishga kirdi. O'g'lim mazkur institutning akademik litseyiga qabul qilindi. Kichik farzandim maktabda o'qiydi.

M.Mirzaqulova o'quvchilarga darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlari ham o'tadi. Shuningdek, yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarga darsni ko'proq takrorlatadi. Qoloq o'quvchilar mavzuni takrorlash orqali boshqa tengdoshlarga yetib oladi.

- Ingliz tili fani bo'yicha ishlab chiqilgan elektron darsliklar o'z faoliyatimda yaxshi samara beryapti, - deydi u. - Darsdan oldin mavzuga oid videodarsni o'quvchilarga qo'yib beraman, so'ngra mavzuni tushuntiraman. Bu o'quvchilarning mavzuni yaxshi o'zlashtirishiga yordam beryapti.

O'qituvchi maqsadga yetish uchun doim harakatdan to'xtamaslikka intiladi. Shogirdlariga ham harakatchan, izlanuvchan bo'lishni maslahat beradi.

Xurshida ERNAZAROVA.



Xurshid Tursunov ham tumanda eng ko'p chempion yetkazib berayotgan murabbiylardan biri. O'zbek bokschi qizlari orasida birinchi bo'lib jahon chempionligini qo'lga kiritgan Nigina O'ktamova hamda ikkinchi jahon chempioni Gulsevar G'aniyevaning birinchi murabbiyi.

- Xurshid aka sportdagi asosiy xislat intizom, mehnat va raqibni hurmat qilishligini ta'kidlaydilar, - deydi Osiyo va jahon chempioni Gulsevar G'aniyeva. - Murabbiyimning sa'y-harakati bilan o'ta-onam ham keyingi faoliyatimga umid bag'ishlagan. U kishining qo'l ostida terma jamoaga qabul qilindim, 2021-yilda O'zbekiston chempioni, Rossiyaada boks bo'yicha qizlar o'rtasidagi xalqaro turnir g'olibi, Dubayda o'smir va yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida dastlabki oltin medalga sazovor bo'ldim. 2022-yilda Ispaniyada yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionati g'olibi, O'zbekistonda yilning eng yaxshi yosh sportchisi, 2023-yilda Belarus poytaxti Minsk shahrida II MDH sport o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdim. Endi trenerim maslahatlariga amal qilib, olimpiada chempioni bo'lmoqchiman.

Ayni paytda sport maktabimizda 2300 nafardan ziyod o'g'il-qizlarga 54 nafar trener-o'qituvchi sportning 22 turi bo'yicha murabbiylik qilmoqda. Sportchilarimizning 18 nafari O'zbekiston milliy terma jamoasining asosiy, 20 nafardan ziyodi xazira tarkibiga qabul qilingan.

Bugungi kunda sport maktabimiz tasarrufida zamonaviy jihozlangan o'nlab yopiq va ochiq turdagi sport inshootlari, futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'p maydonlari, bokschilar, taekvondochilar, kurashchilar uchun alohida sport zallari faoliyat ko'rsatmoqda. Tajribali murabbiylarni yanada ko'paytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarni musobaqalarga tayyorlash, chempionlar sonini ko'paytirish jamoamiz oldida turgan asosiy vazifa.

**Olim SADULLAYEV,
Ishtixon tumani sport maktabi direktori.**

Ziёkor

Инсоният тамаддунга эришибдики, фалсафа инсоннинг шахс сифатида шаклланиши ва камол топишида таъсирчан восита бўлиб келмоқда. Профессор, фалсафа фанлари доктори Ўрол Абилов кўп йиллардан буюн талабаларга фалсафа фанидан сабоқ бериб, инсон ақлий фаолиятининг ўзига хосликлари, ирода, туйғулар ва майллар ўртасидаги мураккаб ва чалкаш, ҳатто зиддиятли муносабатларни ўргатиб келмоқда.



У.Абилов 1950 йилда Жиззах вилояти Фориш тумани Исори қишлоғида таваллуд топди. Мактабни тамомлагач, Тошкент давлат университетининг фалсафа факультетига ўқишга кирди. Олийгоҳни битириб, Тошкент давлат медицина институтининг ижтимоий фанлар кафедрасида ўқитувчи сифатида меҳнат фаолиятини бошлади. 1976-1997 йилларда мазкур институтда катта ўқитувчи, доцент, кафедра мудири, профессор ва тарбиявий ишлар бўйича проректор лавозимларида меҳнат қилди.

1998-1999 йилларда Президент девонининг миллатлараро маса-

лалар бўйича, 1999-2000 йилларда оммавий ахборот воситалари билан ишлаш маркази миллий мафкура ва тафаккур масалалари гуруҳи консультанти, жамоатчилик билан алоқалар бўйича давлат маслаҳатчиси, 2001-2004 йилларда иккинчи Тошкент давлат тиббиёт институтининг маънавий-маърифий масалалар бўйича биринчи проректори, 2004 йилдан бошлаб Соғлиқни сақлаш вазирлиги тиббий таълими ривожлантириш маркази директорининг ўринбосари, 2020-2022 йилларда Соғлиқни сақлаш вазирлиги маслаҳатчиси лавозимларида самарали фаолият олиб борди. 2022 йилдан hozirgacha Тошкент тиббиёт академияси ижтимоий фанлар кафедраси профессори лавозимида меҳнат қилмоқда.

Ўрол Муродович фаолияти давомида ижтимоий фалсафа, миллий ғоя ва мафкура, мустақил-

лик моҳияти, маънавий баркамол шахсни тарбиялаш йўналишларида илмий-тадқиқот ишлари олиб борди. Устознинг илмий изланишларида мустақиллик мафкураси ва халқимиз руҳияти, миллий муносабатлар, кадриятлар, ёш авлод тарбиясидаги муаммолар ечимига алоҳида аҳамият қаратилган.

Устоз 1988 йилда номзодлик, 1994 йилда докторлик диссертацияларини муваффақиятли ҳимоя қилган.

Ў.Абилов мамлакатимизда олий малакали кадрлар тайёрлаш ва уларни аттестациядан ўтказиш ишларида ҳам муносиб ҳисса қўшиб келмоқда. Домла Иброҳим Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти қошидаги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, Самарқанд давлат университети, Наманган давлат университети қошидаги фалсафа фанидан ихтисослашган

кенгашлар ва илмий семинарлар аъзоси, фалсафа бўйича докторлик ва номзодлик ишлари расмий оппонентлик қилиб, салоҳиятли олимларни етиштиришга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда. Шу пайтгача устоз раҳбарлигида 12 та номзодлик иши, битта докторлик ва 5 та магистрлик диссертациялари ҳимоя қилинди. 350 дан зиёд илмий ва оммабоп ижодий ишлар, 7 та фалсафа, мантиқ ҳамда сиёсатшунослик фанларига оид ўқув дарсликларига муаллиflik қилди.

Ў.Абилов ўзининг самарали илмий, ижодий ишлари билан бугун ҳам жамиятимиз тараққиётига муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

Устознинг бой маънавий меросимизни, аждодларимизнинг илмий-фалсафий ғояларини, мустақиллик мафкураси ва миллий муносабатлар, кадриятлар, ёш авлод тарбияси билан боғлиқ муаммоларни тадқиқ қилиш, уларнинг янги қирраларини очиш йўналишидаги илмий тадқиқотлари ҳам таҳсинга сазовор. Янги Ўзбекистоннинг илмий салоҳияти, файласуф олимларимизнинг юксак илмий-фалсафий даражасини нафақат мамлакатимиз миқёсида, балки халқаро илмий анжуманларда намойён қилаётгани ҳар қанча эътирофга арзийди.

Меҳрибон ва камтар устоз Ўрол Абиловни 75 ёш билан кутлаб, илмий-ижодий, муносиб шогирдлар тайёрлашдек хайрли ишларига зафарлар тилаймиз.

Баҳриддин МАМАРАСУЛОВ, Самарқанд давлат педагогика институти доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори.

Muvaffaqiyatga erishish oson emas

Pedagoglar orasida vazir ustamasini qo'lga kiritish va uni keyingi yil ham davom ettirish oson ish emas. Toyloq tumani Baxshitepa mahallasidagi 15-IDUMning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilorom Rahmonova ikki yildan beri vazir ustamasiga munosib ko'rilyapti. Xo'sh, u bunday muvaffaqiyatga qanday erishyapti?

- Inson kasb tanlashda unga kimdir yoki nimadir turtki bo'ladi, - deydi D.Rahmonova. - Men ona tili va adabiyotdan dars beradigan o'qituvchim Mavjuda Mirzayevaga havas qilardim. U kishi juda mehribon ustoz edi. Yaxshi o'qiganim uchun fan olimpiadalariга olib borardi. Endi men ustozimning ishini davom ettiryapman. Har yili o'quvchilarim fan olimpiadalariга faxrlı o'rinlarni qo'lga kiritadi. Masalan, o'tgan o'quv yilida 9-sinf o'quvchisi Marjona Zubaydullayeva asosiy fan olimpiadasining viloyat bosqichiga ona tili va adabiyot fanidan ikkinchi o'rinni egalladi.

Vazir ustamasini olish uchun dastlab yutuqlarga ega o'qituvchilar maktab bosqichida saralanadi. Saralangan pedagoglar Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan test sinovlaridan o'tadi. Test sinovlaridan o'ta olganlar suhbat bosqichiga jalb qilinadi. O'qituvchi suhbat bosqichidan o'ta olsa, vazir ustamasiga ega bo'ladi.

- Bu yil ham imtihonlardan yaxshi o'tdim va vazir ustamasini qo'lga kiritdim, - deydi o'qituvchi. - Vazir ustamasi may oyidan boshlab, to'qqiz oy davomida to'lanadi, ya'ni 6 million 300 ming so'm ustama puli maoshga qo'shib beriladi. Shuningdek, o'tgan yili milliy sertifikatga ega bo'ldim. Bunga ham 50 foiz qo'shimcha ustama puli to'lab berilyapti.

Bundan tashqari, joriy yilda D.Rahmonovaning o'ndan ortiq o'quvchilari ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikatlarni qo'lga kiritdi hamda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi.

X. ERGASHEVA.



Ўрганиш бир ҳунар, ўргатиш икки ҳунар

Назокат Худойбердиева бир неча йиллардан буюн моҳир устоз ва меҳрибон мураббий сифатида ишлаб, минглаб малакали ўрта тиббиёт ходимларини етиштириб, чинакам ҳурмат ва эҳтиромга сазовор бўлган зиёлилардан бири саналади.

Назокат опа 1941 йил 2 октябрда Каттақўрғон шаҳрида зиёли, оилада дунёга келди. Отаси Худойберди бобо "Феруз" тахаллуси билан шеърлар ёзиб, шоир сифатида танилган. Опа 1948-1958 йилларда Каттақўрғон шаҳридаги 2-умумтаълим мактабида таҳсил олиб, мактабни олтин медал билан тугаллади. Самарқанд давлат тиббиёт университетидаги даволаш факультетига ўқиб, йўлланма асосида Каттақўрғон туман марказий шифохонасига ишга юборилди. У ерда беморлар дардига малҳам бўлиш ниятида самарали меҳнат қилиб, тез орада яхши шифокор сифатида эл назарига тушди.

Н.Худойбердиева 1974 йилдан бошлаб Каттақўрғон тиббиёт билим юртида фаолият юрита бошлади. Шифохонадаги тажрибани дарс жараёнига олиб кириб, назарияни амалиёт билан йўғунлаштиргани учун ҳам устознинг сабоқлари шогирдларга бебаҳо билим манбаига айланди.

Таълим жараёнини бойитиш йўлида бир неча услубий қўлланмалар ва дарсликларнинг ҳаммуаллифи сифатида ўз тажрибаларини бошқалар билан баҳам кўрди. Устозимиз Н.Худойбердиева кўп йиллик тажрибалари билан ёш ўқитувчи шифокорларга беминнат маслаҳатларни ҳам бериб келмоқда. Техникумимизнинг ёш ўқитувчиларидан Мафтуна Фозилова, Севара Тилавова, Шахло Исломовага мураббийлик қилиб, тажрибаларини ўргатиб келмоқда. Техникумда устоз-шогирд аънавоси бўйича 28 нафар ёш ўқитувчига 28 нафар устоз бириктирилган. Назокат опа шу 28 нафар шогирдга ҳам ўз тажрибаларидан келиб чиқиб, сабоқ бериб келмоқда.

Назокат Худойбердиеванинг қарийб 60 йиллик меҳнат фаолияти Каттақўрғон шаҳар ҳокимлиги, вилоят ва шаҳар тиббиёт бирлашмаси, техникумнинг бир неча бор фахрий ёрликлари билан эътироф этилган.

Исматилло УМАРОВ, халқ таълими аълочиси, техникум услубчиси.

РЕКЛАМА, E'LONLAR, BILDIRISHLAR MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Bayram qutlovi

Avval filial, joriy o'quv yilidan boshlab mustaqil oliygoh sifatida faoliyat boshlagan Kattaqo'rg'on pedagogika instituti jamoasi ham xalqimiz farzandlari qalbiga ziyo, ma'rifat ulashishni maqsad qilgan.

Institut rektori, falsafa fanlari doktori Sherzod O'roqov boshchiligidagi pedagogik jamoa, qolaversa, N.Ro'ziyeva, F.Yakubov, Sh.Yuldashev, N.Sattorova, Z.Murtozayeva, F.Sattorova, Sh.Berdikulova, G.Ro'zmatova, G.Usmonova, T.Hamidov kabi tajribali ustozlarning fidokorligi samarasida bugun ta'lim dargohimizda bilimli, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlanmoqda. Talabalarimiz respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilayotgan fan olimpiadalarida, ilmiy anjumanlarda qatnashyapti. Xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritmoqda.

Kasbni sevh, uning faxri bilan yashash va sadoqat bilan ishlash baxtiga erishgan pedagogik jamoani O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan tabriklayman!

O'qituvchining sharfli mehnati bilangina yoshlarimizning baxtli kelajagi ta'minlanar ekan, Sizning kelgusidagi ilmiy-pedagogik faoliyatingizga muvaffaqiyatlar tilayman!

Komila MAMADQULOVA.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Abdunazarov Toirga (2024-yil 14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Mustafayeva Gulchexra Azimovnaga (2024-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ismatov Djumaga (2024-yil 9-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Pulatov Buri Xabirovichga (2023-yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum G'aniyev Rustamga (2024-yil 10-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Ibragimova Xafizaga (2022-yil 24-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Usmonova Malikaga (2023-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Madjidov Xujamurad Xursanovichga (2017-yil 20-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'li ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Sherov Almamatga (2024-yil 28-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 96-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Ergashev Sobir Karshiboyevichga (2024-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 7-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Xasanova Misal Xurazovnaga (2020-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasida marhum Nuridinov Sharifga (2017-yil 11-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 50-uy, 34-xona.

BEKOR QILINADI

Samarqand tumanidagi "FLEXI TECH PLAST" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312134894) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Юз билан юзлашган муаллим



Ургут туманининг Испанза маҳалласида юз ёшни қаршилаган табаррук инсон Бўрон Гадов истиқомат қилади.

- 1925 йил августда деҳқон оиласида туғилдим, - дейди устоз. - 1940 йилда етти йиллик мактабни тугатиб, Лаккон гузариди хотин-қизларни ўқитдим, уларга хат-саводни чиқаришда ёрдам бердим. Аммо 1941 йилда бошланган Иккинчи жаҳон уруши тинч ҳаётимизни остин-устун қилиб юборди. 1942 йил ўн етти ёшимда Ватан ҳимоясига сафарбар этилдим. Дастлаб Россиянинг Пенза шаҳрида уч ойлик, кейин Ульяновскда олти ойлик ҳарбий тайёргарлик ўқувиди қатнашдим. Миналардан тазолашчи мутахассислиги бўйича ўқитиб, кичик сержант унвонини беришди. Беларуссия фронтга жўнатишгач, 91-дивизия сафиди фашистларга қарши жангларга сафарбар этилдим. Вазифамиз ҳужум қилиб бораётган армиямизни душман кўмиб кетган миналардан ҳимоя қилиш эди. Шу тариқа Эстония, Латвия, Литва, Шарқий Пруссия ва Польшани гитлерчи фашистлардан тазолашга ҳисса қўшдик. Жанглардан бирида қаттиқ ярдор бўлдим. Госпиталда даво-ланиб, яна қуролдошлар сафига қайтдим. Ғалаба кунини Шарқий Пруссияда кутиб олдик. Шундан сўнг батальонимиз Сталинградга, душманнинг портламай қолиб

кетган мина ва бомбаларини тазолашга жўнатиладди. Бу шаҳардаги вазифамизни бажариб бўлгач, Беларуссияга юборилдик.

Уруш йилларида бошимдан кечирган воқеаларни, ҳалок бўлган, майиб-мажруҳ бўлиб қолган қуролдош дўстларимни эсласам, ҳалиям юрагим жунжикиб кетади. Илоҳим, энди фарзандларимиз унақа кунларни кўрмасин, дунёда ҳамisha тинчлик бўлсин.

Муаллим бўлганим боис 1946 йилда ҳарбий хизматдан озод этилдим. Ватанга қайтиб, тумани миздаги Шитоб кишлоғида ўқитувчилик қила бошладим. 1947 йил февраль ойида Самарқанд педагогика билим юртига ўқишга кирдим. Кейин кишлоғимиздаги 7-мактабда беш йил бошланғич синфларга дарс бердим. 1953-1959 йилларда Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон давлат университети география факультетига ўқидим. Олий маълумотга эга бўлгач, 6-ўрта мактабда география фанидан сабоқ бера бошладим. Ўша йиллар мактабимиз Ургут туманининг етакчи таълим муассасаларидан бири саналарди. Мактабга 10-20 километр нарида Бешкапа, Мўминобод, Тўрткўл, Ғўс кишлоқларидан ёшлар келиб, таълим оларди. Айрим ўқувчилар ижарада яшаб бўлса-да, билим эгаллашга тиришарди. Мактабнинг электр станцияси, юк авто-мобили, трактори, устaxonаси, ҳатто каттагина иссиқxonаси ҳам мавжуд эди. Ўқувчилар мактабда касб ўрганиб, хайдовчилик, тракторчилик, токарлик, дурадгорлик бўйича гувоҳнома олиши мумкин эди. Малакали устоз-мураббийлар

Ургут ва Самарқанд шаҳридан келиб, билимга чанқоқ ёшларга астойдил сабоқ берарди.

Шу тариқа 6-ўрта мактабда 20 йил ишладим. Аввал оддий ўқитувчи, кейин илмий бўлим мудири, мактаб директорининг ўринбосари вазифаларида фаолият кўрсатдим.

Утган асрнинг 70-йиллари охирида кўшни Лаккон гузаридидаги 66-саккиз йиллик мактабда директорлик қилдим. Мактаб эски масжид ўрнидаги кўрмисизгина бинода жойлашган бўлиб, уни бино деб ҳам атаб бўлмасдик. Директорликка тайинлангач, мактаб учун янги бир бино тиклаш мақсадини кўзлашдик. Ҳашар уюштириб, пахсадан девор тикладик. Хўжалик ёрдамида бино томини ёпдик. Ота-оналар кўмагида бинони эпаккага келтиргач, туман халқ таълими бўлими жиҳозлар билан таъминлади. Саккиз йиллик мактабни ўн йилликка айланттирдик. Пенсияга чиққунимга қада-руш мактабга ҳам ўқитувчилик, ҳам директорлик қилдим.

Бугун бу билим даргоҳининг янги биноларини кўрган кишининг ҳаваси келади. Биз ишлаган даврининг машаққатларини эсласам, халқ таълимига бўлган бугунги муносабатни кўриб, юрагим кувонч ва ғурурга тўлади.

Ҳозирда маҳалла ва туман раҳбарлари байрамлар, янги кунлар муносабати билан Бўрон бобонинг ҳолидан хабар олиб туришарди.

Биз ҳам табаррук устозни бугунги улуг байрам билан чин дилдан қутлаб, муборакбод этамиз!

Худойберди КОМИЛОВ.

2004 йилда Самарқанд давлат университетининг ўзбек филологияси факультетига ўқишга кирдим. Бизга талабалар номини ҳурмат ва озроқ ҳайиқиш билан тилга оладиган домла – профессор Хотам Умуоров “Адабиётшуносликка кириш” фанидан дарс ўта бошлади. Домла доим тартиб-интизомни янги кўрар ва барчани олий таълим муассасаси талабаси деган номга лойиқ бўлишга қақирарди.

Устоз ўша йилларда “Шалола” ижодий тўғарагининг ҳам раҳбари эди. Барча ижодкор талабалар мана шу тўғаракка қатнашар, шеърлари, ҳикояларини тўғарақ йиғилишларида ўқиб бериб, тахрирдан ўтказарди. Мен ҳам кичик шеърлар ёзиб турардим ва “Шалола” тўғарагида ҳаяжон билан ўқиб берар эдим.

Иккинчи курсда устозим ёнларига қақириб, ушбу тўғаракка мени сардор қилиб сайлаганини, энди иккинчи тўғарақ йиғилишларини биргаликда ташкиллаштиришимизни айтди. Устозимнинг ишончи, мен учун жуда катта эътибор эди.

Магистратурани тамомлагунимча Устоз Хотам Умуоров билан биргаликда “Шалола” ижодий тўғарагини бошқардим. Бу вақт мобайнида Хотам Умуоров менинг бакалаврлик, магистрлик тадқиқотларимга раҳбарлик қилиб, илмнинг сир-саноатларини тушунтирди. Мен бакалавр ва магистратурадаги

Азим чинор япроқлари

таълим давомида шеърят бўйича, унинг таҳлили бўйича илмий изланиш олиб бордим. Магистрлик диссертацияси ҳимоясида бағри кенг устозларим менинг келажақда илмий ишнинг давом эттиришим кераклигини ва бу соҳада ҳар жиҳатдан ёрдам беришга тайёр эканликларини айтишди. 2011 йилда университетга стажёр-тадқиқотчи (ҳозирда таянч докторантура) қабул қилиндим. Устозим менга яна шеърят бўйича илмий изланиш олиб боришим кераклигини уқтирди. Мен эса насрий йўналиш бўйича, қиссачилик бўйича мавзу беришини сўрадим. Шунда устозим: “Мафтуна, қизим, сиз шеърят бўйича илм қилишингиз керак. Чунки ўзингиз шеърлар машқ қиласиз. Рухингиз, қалбингиз шеърятга яқин. Сизга замоний шеърят бўйича мавзу берман”, деди. Мен устозимнинг бу эътирофидан кейин ўзимга ишончим янада ошиб, ўқиб-изланишда давом эта бошладим.

Домла мунтазам ойлик, йиллик аниқ режимида талаб қилар, муддатини ҳам алоҳида тайинлар эди. Домла олдиларида ёру-биродарлари, дўстлари кўп бўлишига қарамай, алоҳида вақт ажратиб биз шоғирдлар билан суҳбатлашарди.

Диссертация ёзиш жараёнида домла ўз қарашларимга собит бўлишга, ўзимнинг эркин фикрим, гоям бўлиши ва шунинг билан бирга, ўзгаларнинг фикрларига ҳам ҳурмат билан қарашим лозимлигини ўргатди. Диссертациянинг ҳимоясида айниқса, диссертация ҳимоясидан олдин бўладиган кенгаш қошидаги илмий семинар муҳокамаси-



да устозим мендан зиёд ҳаяжонланди. Чунки тадқиқотим ўзбек модерн шеърятига бағишланганлиги учун баҳс-мунозарарага бой ўтди (Чунки бу шеърятнинг ҳақиқий жонкуярлари бўлиши билан бирга, уни ёқламайдиган ғарбга кўр-кўрона тақлид деб билувчилар ҳам мавжуд эди.) Савол-жавоб нийоятда қизгин бўлди. Хотам Умуоровнинг ишончи, эътибори туфайли диссертациямни муваффақиятли ҳимоя қилдим. Устозимнинг кўрсатмаларига амал қилиб кам бўлмадим. Бугун мен Хотам Умуоровнинг таълими, оталарча самимий маслаҳатлари туфайли филология фанлари доктори (DSc) даражасига эришдим.

Устозларни чинорга қиёслагим келади. Дарҳақиқат, устоз катта бир чинор бўлсалар, унинг ҳар бир шохи, япроқлари шоғирдлари, издошларидир. Ўша чинорнинг битта барги бўлганлигидан фахрланаман.

Мафтуна ХОЛОВА,
Самарқанд давлат чет тиллар институти доценти, филология фанлари доктори.

ОКТАБР ОЙДА ТАВАЛЛУД ТОПГАНЛАР

1-ОКТАБР

Jo'raqul SATTOROV – 1938-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi.

4-ОКТАБР

Obloqul UZOQOV – (1922-1955) Urgut tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

Nafas ESHQOBILOV – 1953-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Jo'ravob HAMDAMOV – (1929-2020) Andijon viloyati, Asaka tumanida tug'ilgan. SamDU professori, tilshunos olim.

Obloqul BOZOROV – (1932-2021) Bulung'ur tumanida tug'ilgan. Falsafa fanlari doktori, professor.

Механикларнинг севимли устози

Самарқанд давлат университетининг кўзга кўринган, механикага оид чуқур ўзлаштирган фидойи олимлардан бири Жўракул Қаюмов бу йил 90 ёшни қарши олди.

Устоз 1935 йилда Самарқанд шаҳрида таваллуд топди. Болаликда ота меҳридан жудо бўлиб, онаси тарбиясида улғайди. Ёшлигидан меҳнат қилди, ўқиди. Мактабни аъло баҳоларга тамомлагач, Самарқанд давлат университетининг физика-математика факультети талабаси бўлди.

1958 йилда университетни битириб, аввал Тожикистонда, сўнгра Самарқанд шаҳридаги ўрта мактабларда математика, физика, астрономия ва чизмачилик фанларидан дарс берди. Лекин математика фанига бўлган қизиқиш уни университет бағрига чорлади. 1967 йилда университетнинг механика-математика факультети ассистентлигига ишга қабул қилинди. Ёш иқтидор соҳиби 1969 йилда назарий механика кафедраси қошидаги аспирантурага кириб, академик И.Куклес раҳбарлигида дифференциал тенгламаларнинг механикага татбиқи бўйича илмий изланишлар олиб борди. Аспирантурани битириб, 1973 йилда номзодлик илмий ишини муваффақиятли ҳимоя қилди.

Жўракул Ҳамроқулович 2015 йилгача университетнинг механика-математика факультети назарий механика кафедрасида ассистент, катта ўқитувчи, доцент лавозимларида самарали меҳнат қилди. Ушбу фаолияти давомида устоз 60 дан ортиқ илмий мақола ва илмий-услубий қўлланмалар яратди. Пенсияга чиққанидан кейин ҳам илмий изланишларини давом эттирди.

Домла университетнинг алгебра ва сонлар назарияси кафедраси катта ўқитувчиси Юсуф Шарипов билан ҳамкорликда араб ва форс тилларида



ёзилган Марказий Осиё олимларининг математикага оид асарларини таҳлил қилди. Москва, Санкт-Петербург, Киев университетлари кутубхоналарида сақланаётган минтақамиз олимларининг асарлари нусхаларини университет кутубхонасига олиб келди. Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университетининг физика-математика факультети Шарқ қўлёзмалари бўлимида математикага доир китобларнинг тўла каталогини тузиб чиқдилар. Бу изланишлар самарасида математика тарихига бағишланган мақолалар чоп этиришди.

Устоз умир йўлдоши билан тўрт нафар фарзандни тарбиялаб камолга етказди. Ҳозирги кунда 10 нафар набира, 6 нафар эвара қуршовида умр кечирмоқда.

Меҳрибон устоз Жўракул Қаюмовни ўқитувчи ва мураббийлар куни ҳамда муборак 90 ёши билан табриклаб, умрига умр қўшилишини, доимо саломат бўлишини тилаймиз!

А.СОЛЕЕВ,
физика-математик фанлари доктори, профессор.
В.ЭРГАШЕВ,
физика-математика фанлари номзоди, доцент.

Ўқитувчилик – инсонни юксак маънавиятли, одоб-ахлоқли, иймон-инсофли, Ватанга садоқатли қилиб тарбиялайдиган, унинг қалбида ота-онага, бутун жамият аъзоларига нисбатан иззат-ҳурмат ҳиссини шакллантирадиган фаолият.

Вилоятимизда ушбу касбини умрининг мазмуни деб билган кишилар минглаб топилди. Улар орасида Абдуазиз Аминовнинг номини фахр билан келтириш мумкин.

А.Аминов Иккинчи жаҳон урушининг суронли даври бўлган 1942 йилнинг 20 апрелида Тойлоқ туманининг Испанди кишлоғида дунёга келди. Ўрта мактабни тугатгач, Самарқанд давлат университетининг физика факультетига ўқишга кириб, уни муваффақиятли битирди. Сўнгра Самарқанд шаҳридаги 3-сонли кечки ишчи ёшлар мактабиди, 5-ўрта умумтаълим мактабидида ўқитувчилик қилди. Ёш ва маҳоратли муаллимнинг ўз касбини мукамал билиши, дарсларни

Азиз устоз – илм йўлидаги нур



хаёт билан боғлаб ўтишдаги маҳорати, ташкилотчилиги ва ташаббускорлиги, янгиликка интилувчанлиги халқ таълими бошқарув органлари раҳбарларининг эътиборига тушиди ҳамда у вилоят микросидаги масъул лавозимга ишга тақлиф қилинди.

1968 йилдан бошлаб унинг меҳнат

фаолияти вилоятдаги таълим тизими идораларида кечди. Аввал вилоят халқ таълими ходимлари касаба уюшмасида назоратчи, кейин Самарқанд шаҳридаги 3-сонли кечки ёшлар мактабиди директор, вилоят халқ таълими бошқармаси умумтаълим мактаблари бўлими бошлиғи лавозимларида сидқидилдан меҳнат қилди. 1997 йилдан пенсияга чиққунига қадавр вилоят педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институтининг ректори вазифасида ишлади.

Абдуазиз Аминовнинг педагогик фаолияти ушбу институтга раҳбарлик қилган йиллари янада самарали бўлди. Институтнинг моддий-техникавий таъминоти яхшиланди, дастлабки компьютер синфлари пайдо бўлди. Педагогик кадрларнинг малакасини ошириш жараёнига нуфузли олимлар жалб қилинди. Ўқитувчи-услубчилар таркибиди 8 нафар фан доктори, профессор, 18 нафар фан номзоди-доцентлар фаолият юрита бошлади. Янги аудиториялар, фаоллар зали, ётоқхона бинолари қурилди, “Маънавият

ва маърифат маркази” ташкил этилди. Малака оширишга келган ўқитувчи-мураббийларнинг Самарқанд шаҳридаги намунали мактаб-боғчаларда тажриба ўрганиши жорий қилинди.

Шунингдек, педагогик кадрлар учун услубий қўлланма сифатида хизмат қиладиган “Зиёкор” номи журнал таъсис этди ва унинг ҳар ой чоп этилишини таъминлади.

Тўпланган тажрибалар ва илмий хулосалар асосида диссертация ёқлаб, педагогика фанлари номзоди бўлди.

Устоз 9-11-синф ўқувчилари учун мўлжалланган “Физикани ўрганамиз”, “Физикадан тест синовлари”, “Математикадан тест синовларига тайёрланиш бўйича тавсиялар” ва бошқа услубий қўлланмалар нашр эттирди. Вазирилик орқали институт ходимларининг Англия, Германия, Франция каби хорижий давлатларда малака оширишини йўлга қўйишга эришди.

Халқ таълими ходимлари А.Аминовга “Азиз устоз”, деб мурожаат қилар эдилар. Ҳақиқатан ҳам устоз бундай номга муносиб эди. У муаллим-тарбиячиларнинг ўқитувчиси – энг азиз устози эди.

Йўлдош СУЮНОВ,
“Маънавият фидойиси” кўркак нишонли соҳиб.
Абдумалик МАЖИДОВ,
халқ таълими фахрийси.

МАТБУОТ УЙИ

Zarafshon

САМАРҚАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 916 nusxada chop etildi. Buyurtma 456. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonа manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:
G'.HASANOV.

Navbatchi:
F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:
B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 4-oktabr, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X

9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda